MAKTABGACHA TA’LIMDA YAPONIYA TAJRIBASINI O‘ZBEKISTONDA KO‘LLASH TAJRIBASINI QIYOSIY TAHLILI

Mamajonov Rasuljon Mahkamovich
Namangan viloyati Pedagogik mahorat markazi Tarbiya fani metodisti.
E-mail: mamajonov.rasulzhon@gmail.com Tel: +998993455174
Mahkamova Muazzam Rasuljon qizi
Namangan davlat pedagogika institute Ona tili (Rus tili va adabiyoti) qo‘shma ta’lim 1-bosqich magistranti Tel: +998948877067

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.24489478

Annotatsiya. Mazkur maqolada “Ilk qadam” milliy o‘quv dasturi, rivojlantiruvchi muhitni tashkil etish va interaktiv o‘yin texnologiyalari asosida Yaponiya va O‘zbekiston tajribasi qiyosiy tahlil qilinadi. Shuningdek, maktabgacha ta’limda shakllantirilgan ko‘nikmalarni boshlang‘ich ta’lim bosqichida davom ettirish bo‘yicha amaliy takliflar ham kiritildi.

Kalit so‘zlar: maktabgacha ta’lim, boshlang‘ich ta’lim, Yaponiya tajribasi, O‘zbekiston ta’lim tizimi, pedagogik texnologiyalar, rivojlantiruvchi muhit, “Ilk qadam” dasturi, Shitsuke, Kaizen, jamoaviy hamkorlik, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, milliy qadriyatlar.

Аннотация. В данной статье проводится сравнительный анализ опыта Японии и Узбекистана в контексте национальной образовательной программы «Илк кадам», организации развивающей среды и применения интерактивных игровых технологий. Кроме того, представлены практические предложения по обеспечению преемственности навыков, сформированных на этапе дошкольного образования, на этапе начального образования.

Ключевые слова: дошкольное образование, начальное образование, опыт Японии, система образования Узбекистана, педагогические технологии, развивающая среда, программа «Илк кадам», Shitsuke, Kaizen, коллективное сотрудничество, личностно-ориентированное образование, национальные ценности.

Abstract. This article presents a comparative analysis of the experiences of Japan and Uzbekistan in the context of the national educational curriculum “Ilk Qadam” (First Step), the organization of a developmental environment, and the application of interactive game-based technologies. It also offers practical recommendations for ensuring the continuity of skills developed at the preschool education stage into the primary education stage.

Keywords: preschool education, primary education, Japanese experience, education system of Uzbekistan, pedagogical technologies, developmental environment, “Ilk Qadam” curriculum, Shitsuke, Kaizen, teamwork, learner-centered education, national values.

Kirish. Bugungi globallashuv va axborot texnologiyalari jadal rivojlanayotgan davrda ta’lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifalardan biri- har tomonlama rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, ijodkor, mas’uliyatli va ijtimoiy faol shaxsni tarbiyalashdir. Bu jarayon, ayniqsa, maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim bosqichlarida muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki aynan shu davrda bolaning dunyoqarashi, xulq-atvori, muloqot madaniyati, mustaqillikka intilishi va jamiyatda o‘z o‘rnini topishi uchun zarur bo‘lgan dastlabki ko‘nikmalar shakllanadi.

Hozirgi kunda Namangan viloyatida maktabgacha va maktab ta’limi tizimini takomillashtirish, ta’lim mazmuniga ilg‘or xorijiy tajribalarni tatbiq etish, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish borasida viloyat hokimligi tashabbusi bilan ustuvor vazifalar belgilab olindi. Bu borada Yaponiya ta’lim tizimi alohida e’tiborga loyiq. Ushbu mamlakatda bolalarni yoshligidan mustaqillikka, intizomga, jamoaviylikka, mehnatsevarlikka va atrofdagilarga hurmat ruhida tarbiyalashga katta ahamiyat beriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2025-yil 19-dekabr sanasida Yaponiyaga rasmiy tashrifi bo‘lib, unda Imperator Naruhito bilan uchrashuvi va shu yili kunchiqar yurtda bo‘lib qaytgan Namangan viloyati hokimligi delegatsiyasi ham bir qator muhim

kelishuvlarga erishdi. Jumladan, o‘sib kelayotgan yosh avlodni nafaqat ilmiy, balki tarbiyaviy jihatdan ham yetuk qilib voyaga yetkazish maqsadida Namangan viloyatida “Yaponiya tajribasi” joriy etilishi belgilandi. Ushbu tajriba 18 ta maktabgacha ta’lim tashkiloti va 17 ta umumta’lim maktabining boshlang‘ich sinflaridagi 95 ta sinfni qamrab oldi.

O‘zbekiston va Yaponiya ta’lim tizimlarining maqsadlari va milliy xususiyatlarida muayyan farqlar mavjud bo‘lsa-da, ularni birlashtiruvchi muhim jihat-ta’lim-tarbiya jarayonida inson shaxsi, axloqiy fazilatlar va ijtimoiy ko‘nikmalarning ustuvorligidir.

Shu nuqtayi nazardan, Yaponiyaning samarali pedagogik yondashuvlarini o‘zbek milliy qadriyatlari, urf-odatlari va ta’lim dasturlari bilan uyg‘unlashtirish maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim sifatini oshirishda muhim imkoniyat yaratadi.

1. Yaponiya va O‘zbekiston ta’lim tizimidagi zamonaviy pedagogik yondashuvlar

Yaponiya ta’lim tizimining muhim xususiyatlaridan biri-bolani faqat bilim oluvchi sifatida emas, balki mustaqil qaror qabul qiladigan, o‘z xatti-harakatlari uchun javob beradigan va jamoaning to‘laqonli a’zosi bo‘lgan shaxs sifatida rivojlantirishga intilishdir.

Yaponiya maktabgacha ta’limida bolalarning mustaqil faoliyati, erkin o‘yinlari, tabiat bilan muloqoti, kundalik hayotiy vazifalarni bajarishi va jamoaviy ishlarda ishtirok etishiga alohida e’tibor qaratiladi. Bunda tarbiyachi doimiy buyruq beruvchi emas, balki bolaning mustaqil faoliyatini yo‘naltiruvchi, kuzatuvchi va zarur paytda ko‘maklashuvchi pedagog sifatida namoyon bo‘ladi.

Mazkur yondashuvning muhim jihatlaridan biri-tarbiya jarayonini sun’iy ravishda tashkil etilgan mashg‘ulotlar bilangina cheklamaslikdir. Masalan, o‘yindan keyin o‘yinchoqlarni yig‘ishtirish, gullarga suv quyish, o‘z kiyimlarini tartibga keltirish, do‘stlariga yordam berish kabi kundalik harakatlar ham ta’lim-tarbiyaning ajralmas qismi hisoblanadi.

O‘zbekistonda ham “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi asosida bolaning shaxsiy xususiyatlari, qiziqishlari va individual rivojlanish sur’atlarini hisobga olishga yo‘naltirilgan ta’lim modeli shakllantirilgan. Dasturda bolalarning jismoniy, ijtimoiy-hissiy, nutqiy, bilish va ijodiy rivojlanish sohalariga kompleks yondashiladi.

Shu jihatdan, Yaponiyaning amaliy tarbiyaga yo‘naltirilgan tajribasi bilan O‘zbekistonning shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim modeli bir-birini to‘ldirishi mumkin.

Qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, Yaponiya tajribasida kundalik hayotiy faoliyat orqali tarbiyalashga katta urg‘u berilsa, O‘zbekistonda bu jarayonni milliy qadriyatlar, oila, mahalla, urf-odatlar va milliy tarbiya an’analari bilan boyitish imkoniyati mavjud.

2. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar: yapon tajribasi va milliy yondashuvlar uyg‘unligi

Yaponiya ta’lim tizimida qo‘llanilayotgan bir qator pedagogik tamoyillar maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim jarayonida samarali foydalanish mumkin bo‘lgan metodik asos hisoblanadi.

Jumladan, quyidagi yondashuvlar alohida ahamiyatga ega:

2.1. “Shitsuke”- jazolarsiz intizomni shakllantirish.

Ushbu tamoyil bolada intizomni qo‘rqitish, jazolash yoki majburlash orqali emas, balki kundalik odatlar, vizual belgilar, shaxsiy namuna va ijobiy muhit orqali shakllantirishni nazarda tutadi.

Masalan, maktabgacha ta’lim tashkilotida bolalarning poyabzallari uchun maxsus joy ajratilib, har bir bolaning poyabzali shakliga mos belgi qo‘yiladi. Bola o‘z poyabzalini mustaqil ravishda belgilangan joyga qo‘yadi. Boshlang‘ich sinflarda esa bu yondashuvni o‘quv qurollarini tartibli saqlash, darsga tayyorgarlik ko‘rish va sinfxonadagi umumiy qoidalarga amal qilish orqali davom ettirish mumkin.

O‘zbek milliy tarbiyasidagi odob, tartib-intizom va kattalarga hurmat tamoyillari ushbu yondashuv bilan hamohangdir.

2.2. “Kaizen”- uzluksiz kichik qadamlar orqali rivojlanish.

“Kaizen” tamoyili har kuni oz-ozdan bo‘lsa-da, o‘z ustida ishlash, kechagi natijadan yaxshiroq natijaga erishish g‘oyasiga asoslanadi.

Masalan, bola bugun mustaqil kiyinishni o‘rgansa, ertaga kiyimlarini tartibga keltirishga, keyingi kuni esa do‘stiga yordam berishga odatlanadi.

Boshlang‘ich ta’limda mazkur tamoyilni o‘quvchining shaxsiy rivojlanish xaritasi, kunlik o‘z-o‘zini baholash, kichik maqsadlar belgilash va refleksiya mashg‘ulotlari orqali amalga oshirish mumkin.

Bu jarayonda o‘quvchilarni bir-biri bilan taqqoslash emas, balki har bir bolaning shaxsiy o‘sishini e’tirof etish muhimdir.

2.3. “Toban”- kunlik mas’uliyat va navbatchilik tizimi.

Yaponiya tajribasida bolalarga yoshligidan jamoa oldidagi mas’uliyatni his qilish o‘rgatiladi. Mazkur yondashuvga ko‘ra, har bir bolaga muayyan vazifa yuklanadi.

Maktabgacha ta’limda bolalar gullarga suv quyish, o‘yinchoqlarni joylashtirish, dasturxon tayyorlashda ishtirok etish kabi vazifalarni bajarishlari mumkin.

Boshlang‘ich sinflarda esa sinf navbatchiligi, kitoblar burchagiga mas’ullik, sinfxona ozodaligini saqlash va guruh loyihalarini tashkil etish orqali davom ettiriladi.

2.4. “Kyodo”- jamoaviy hamkorlik va o‘zaro yordam.

Ushbu tamoyil individual raqobatdan ko‘ra jamoaviy muvaffaqiyatni ustuvor qo‘yadi. Bolalar umumiy maqsadga erishish uchun birgalikda harakat qilishni, o‘zaro kelishishni va bir-birini qo‘llab-quvvatlashni o‘rganadilar.

Masalan, bir guruh bolalar umumiy maket yasashda ishtirok etadi. Har bir ishtirokchi muayyan vazifani bajaradi va yakuniy natija barcha ishtirokchilarning hamkorligi orqali yaratiladi.

O‘zbekistondagi “Hashar”, mahallachilik, jamoaviy mehnat va o‘zaro yordam an’analari ushbu tamoyilni milliy mazmunda amalga oshirish uchun mustahkam asos bo‘la oladi.

2.5. “Osoji” - tozalik va mehnat madaniyatini shakllantirish.

Yaponiya ta’lim muhitida tozalik faqat texnik xodimlarning vazifasi sifatida qaralmaydi. Bolalar ham o‘zlari foydalangan joy va buyumlarni tartibga keltirishda ishtirok etadilar.

Bu orqali ular mehnatni qadrlash, atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish va umumiy mulkni asrashni o‘rganadilar.

O‘zbek xalqining hashar an’anasi bilan uyg‘unlashtirilgan ushbu yondashuv maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim muassasalarida mehnat tarbiyasini kuchaytirishga xizmat qiladi.

3. Rivojlantiruvchi muhit - ta’lim-tarbiyaning muhim omili

Zamonaviy pedagogikada ta’lim sifati faqat pedagogning bilimi va mashg‘ulotlarni tashkil etish mahorati bilan belgilanmaydi. Bolaning atrofidagi muhit, jihozlar, o‘quv materiallari, vizual vositalar va mustaqil faoliyat uchun yaratilgan imkoniyatlar ham muhim ahamiyatga ega.

Yaponiya pedagogik tajribasida bu yondashuv “Muhit-uchinchi pedagog” g‘oyasi orqali ifodalanadi. Bunda birinchi ustoz- ota-ona, ikkinchi ustoz-pedagog, uchinchi ustoz esa bolaning kundalik faoliyatini rag‘batlantiruvchi muhit hisoblanadi.

Masalan, guruh xonasidagi barcha o‘yinchoqlar, kitoblar va o‘quv materiallari bolalarning bo‘yi yetadigan ochiq javonlarda joylashtiriladi. Har bir buyumning o‘z o‘rni bo‘ladi. Vizual belgilar bolaga buyumlardan foydalanish va ularni joyiga qaytarishni mustaqil bajarishga yordam beradi.

O‘zbekistondagi maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ham rivojlantiruvchi markazlar tashkil etish orqali ushbu yondashuvni tatbiq etish imkoniyati mavjud.

Bunda quyidagi markazlarga alohida e’tibor qaratish maqsadga muvofiq:

- qurish-yasash va konstruksiyalash markazi;
- san’at va ijod markazi;
- kitob va nutqni rivojlantirish markazi;
- fan va tabiat markazi;
- syujetli-rolli o‘yinlar markazi.

Boshlang‘ich ta’limda esa mazkur g‘oyani fanlar kesimida tashkil etilgan o‘quv burchaklari, kitobxonlik zonalari, ijodiy laboratoriyalar, tabiat burchaklari va mustaqil ishlash makonlari orqali davom ettirish mumkin.

Masalan, tabiat markazida o‘quvchilar o‘simliklarni parvarishlash, ularning o‘sishini kuzatish va natijalarni qayd etish bilan shug‘ullanadilar. Matematika markazida esa turli

manipulyativ materiallar, geometrik shakllar va hisoblash vositalari orqali amaliy topshiriqlarni bajaradilar.

Shunday qilib, rivojlantiruvchi muhit bolani tayyor bilimni qabul qiluvchi emas, balki izlanuvchi, tajriba o‘tkazuvchi va mustaqil qaror qabul qiluvchi subyektga aylantiradi.

4. Maktabgacha va boshlang‘ich ta’limda ta’lim-tarbiya metodikasining uzviyligi

Maktabgacha ta’lim va boshlang‘ich ta’lim o‘rtasidagi uzviylik bolaning keyingi o‘quv faoliyatiga moslashuvi, mustaqilligi va ijtimoiy ko‘nikmalarini mustahkamlashda muhim omil hisoblanadi.

Maktabgacha ta’lim bosqichida o‘yin yetakchi faoliyat sifatida namoyon bo‘lsa, boshlang‘ich ta’limda o‘quv faoliyatining ahamiyati ortadi. Biroq bu o‘tish jarayoni bolaning tabiiy rivojlanish xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etilishi lozim.

Yaponiya tajribasidan kelib chiqib, mazkur ikki bosqich o‘rtasida quyidagi metodik uzviylikni ta’minlash mumkin:

Birinchidan, o‘yin texnologiyalarini davom ettirish. Maktabgacha ta’limda shakllangan didaktik, harakatli va syujetli-rolli o‘yinlardan boshlang‘ich sinflarda ham ta’lim vositasi sifatida foydalanish lozim. Masalan, matematik o‘yinlar, til o‘rgatuvchi mashqlar, tabiatni o‘rganishga qaratilgan ijodiy topshiriqlar o‘quvchilarning fanga qiziqishini oshiradi.

Ikkinchidan, mustaqillik va mas’uliyatni rivojlantirish. Maktabgacha ta’limda o‘yinchoqlarni yig‘ishtirishga odatlangan bola boshlang‘ich sinfda o‘z o‘quv qurollarini tartibga keltirish, vazifalarini rejalashtirish va bajarish uchun mas’uliyatni his qilishi kerak.

Uchinchidan, ijtimoiy-hissiy ko‘nikmalarni mustahkamlash. Bolalarni o‘z hissiyotlarini anglash, nizolarni tinch yo‘l bilan hal qilish, boshqalarning fikrini hurmat qilish va hamdardlik ko‘rsatishga o‘rgatish har ikki bosqichda ham davom etishi zarur.

To‘rtinchidan, amaliy faoliyatga asoslangan ta’limni kuchaytirish. Yaponiya tajribasidagi kundalik hayotiy vaziyatlardan ta’limiy maqsadlarda foydalanish metodikasi boshlang‘ich sinflarda ham samaralidir. Masalan, suvni tejash, chiqindilarni saralash, o‘simliklarni parvarishlash va jamoaviy loyihalarni amalga oshirish orqali bir vaqtning o‘zida tabiiy fanlar, matematika va tarbiya fanlarini integratsiya qilish mumkin.

Bu kabi yondashuvlar bolaning maktab hayotiga moslashuvini yengillashtirish bilan birga, ta’limning hayotiy ahamiyatini ham oshiradi.

5. Yaponiya tajribasini O‘zbekiston ta’lim tizimiga tatbiq etishning istiqbolli yo‘nalishlari

Yaponiya pedagogik tajribasini milliy ta’lim tizimiga tatbiq etishda uning shaklini ko‘chirish emas, balki mazmuni va samarali mexanizmlarini milliy sharoitga moslashtirish muhimdir.

O‘zbekistonning boy milliy tarbiya an’analari, oila va mahalla instituti, hashar, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, mehnatsevarlik va hamjihatlik kabi qadriyatlari xorijiy tajribalarni milliy mazmun bilan boyitish imkonini beradi.

Shu asosda quyidagi amaliy takliflarni ilgari surish mumkin:

1. “Yapon-o‘zbek tarbiya makoni” modelini joriy etish. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari va boshlang‘ich sinflarda bolalarning mustaqilligi, intizomi, mas’uliyati va jamoaviyligini rivojlantiruvchi yagona pedagogik muhit yaratish.

2. “Har kuni bitta yaxshi odat” texnologiyasini qo‘llash. “Kaizen” tamoyili asosida bolalarning shaxsiy rivojlanishini kichik, lekin muntazam qadamlar orqali ta’minlash.

3. “Men bugun mas’ulman” tizimini tashkil etish. Bolalarni kunlik navbatchilik, jamoaviy vazifalar va umumiy mulkni asrashga jalb qilish.

4. “Muhit-uchinchi pedagog” konsepsiyasini kengaytirish. Ta’lim muassasalarida bolaning yoshiga mos, xavfsiz, estetik va mustaqil faoliyatga undaydigan rivojlantiruvchi makonlar tashkil etish.

5. O‘yin va loyiha texnologiyalarini integratsiya qilish. O‘quvchilarni jamoaviy tadqiqotlar, amaliy mashg‘ulotlar, ekologik loyihalar va ijodiy vazifalarga jalb etish.

6. Oila va ta’lim muassasasi hamkorligini kuchaytirish. Bolalarda shakllantirilayotgan ijobiy odatlarni oilada ham davom ettirish uchun ota-onalarga metodik tavsiyalar berish.

7. Rivojlanishni shaxsiy mezonlar asosida baholash. Bolalarni o‘zaro taqqoslash o‘rniga, har birining individual o‘sishi, harakati va intilishini kuzatish hamda rag‘batlantirish.

Mazkur takliflarning amalga oshirilishi ta’lim-tarbiya jarayonida pedagogning ijodiy yondashuvini kuchaytirish, bolalarning mustaqil faoliyatini rag‘batlantirish va ta’lim muassasasida ijobiy ijtimoiy muhitni shakllantirishga xizmat qiladi.

Xulosa. Yaponiya va O‘zbekiston ta’lim tizimlarining qiyosiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy ta’limning asosiy maqsadi bolaga faqat bilim berish emas, balki uning shaxsiy, ijtimoiy va ma’naviy rivojlanishini ta’minlashdan iboratdir.

Yaponiyaning “Shitsuke”, “Kaizen”, “Toban”, “Kyodo” va “Osoji” kabi pedagogik tamoyillari bolalarda intizom, mustaqillik, mas’uliyat, mehnatsevarlik va jamoaviy hamkorlikni shakllantirishda muhim metodik ahamiyatga ega. Ularning o‘zbek milliy qadriyatlari-hashar, mehr-oqibat, andisha, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat va hamjihatlik bilan uyg‘unlashtirilishi esa milliy ta’lim modelini yanada boyitadi.

Ayniqsa, maktabgacha ta’limda shakllantirilgan ijtimoiy-axloqiy ko‘nikmalarni boshlang‘ich ta’lim bosqichida izchil davom ettirish ta’lim-tarbiya samaradorligini oshirishning muhim shartidir.

Eng asosiysi, zamonaviy pedagog bolaga tayyor ko‘rsatmalarni beruvchi emas, balki uni mustaqil fikrlashga, izlanishga, xatolaridan xulosa chiqarishga va jamoada o‘z o‘rnini topishga yo‘naltiruvchi ijodkor shaxs bo‘lishi lozim.

Zero, ta’lim muassasasida yaratilgan har bir ijobiy muhit, o‘tkazilgan har bir amaliy mashg‘ulot va shakllantirilgan har bir yaxshi odat kelajak avlodning shaxsiy kamoloti uchun mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi 2019-yil 16-dekabrdagi O‘RQ-595-son Qonuni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risidagi Farmoni.
3. «Ilk qadam» maktabgacha ta’lim tashkilotining milliy o‘quv dasturi. - Toshkent, 2026.
4. Montessori M. Bolalarning mustaqil faoliyati va sensomotor rivojlanishiga oid pedagogik qarashlar.
5. Leontyev A.N. Faoliyat nazariyasi va shaxs rivojlanishiga oid ilmiy qarashlar.
6. https://www.reddit.com/r/japan/comments/n48bz2/how_do_japanese_parents_typically_discipline/?tl=ru
7. https://maktabgacha-va-maktab-talimi-jurnal.uz/index.php/jurnal/article/view/2400